

rining rahbarlari bilan hamkorlikda shaliar va tuman tibbiyot muassasalaiiga borib, jamoalar orasida tushuntirish ishlari olib bordi.

Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" kitobini ribbiyot muassasalari keng jamoalari orasida targ'ibot qilishdek mas'ul vazifa uddalandi. Shuningdek Prezintimizning "O'zbekiston Mustaqillika erishish bo'sag'asida" kitobi ham tibbiyot jamoatchi ligida keng muhokama qilindi.

Tarixdan ma'lumki bobomiz Amir Temur Samarqand shahrining dovrug'ini dunyoga tarqatish maqsadida ilm-fan sohiblari, mashhur olimlar, hunarmandlarni Samarqand shahriga olib kelib, ularning bemalol ijod qilishiga sharoil yaratib bergan. O'sha vaqtda Samarqandda, umuman Sharq mamlakatlarida ilm-tan va madaniyat gurkirab rivojlangan davr bo'lgan. Lekin ayrim sabablar bilan olimlar to'g'risida va ular yaratgan hamma kitoblarni ham bizgacha yetib kelmagan. Jumxurriyatimiz mustaqillikka erishgan dan keyingina xalqimiz o'zining haqiqiy o'tmishini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan uch tomli "O'zbekistonning yangi tarixi" kitobi nashirdan chiqdi. Endilikda xalqimizda o'z millatning haqiqiy o'tmishini o'rganish uchun imkoniyat yaratildi. Shu o'rinda xalq tabobatini yaratib ketgan, uning tamal toshini qo'ygan, ulug' ustozlarimizning fidoyiliklarini, aziz hamkasblarimizning chekkan xizmatlarini xalqi ravishda ezozlashimiz va qadrlashimiz, ularning hayoti va faoliyatini chuqur o'rganib, keng yoritishimiz lozim. Ana shu hikmatdan kelib chiqqan xolda viloyat hokimligi sog'liqni saqlash boshqarmasi (N.I.Xojaev), viloyat vrachlar assotsiatsiyasi (H.U.Ulug'ov) xabarini tashabbusi va saiy harakatlari hamda viloyat tibbiyoti faollarining qo'llab-quvvatlashi natijasida 2007-yil Samarqand shahrining 2750 yoshligi nishonlanishi arafasida 2

tomlik "Samarqand tibbiyoti tarixi" kitobi yaratildi. Kitobda Samarqand tibbiyotining IX-XXI asrlar mobaynida ahvoli, tibbiyot ravnaqiga hissa qo'shgan olim-fuzolalar, mohir hakimlar hamda hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotgan shifokorlar va sog'liqni saqlash tizimining uddaburon tashkilotchilarning hayoti to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan.

Hozirgi kecha-kunduzda O'VAning 20-yilligiga bag'ishlangan "Samarqand viloyat vrachlar assotsiatsiya-sining tarixiga bir nazar" risolasi chop etishga tayyorlanmoqda.

Viloyat vrachlar assotsiatsiyasi tibbiyot ravnaqiga munosib xissa qo'shgan mohir shifokorlar va sog'liqni saqlash tashkilotchilari. Olim-fuzolalari hayoti va faoliyati yoritiladigan adabiyotlarni nashrga tayyorlash ishlarini davriy ravishda olib borishni rejalashtirilgan. Samarqand davlat tobbiyot institutining yirik olimlari to'g'risidagi "Samarqandlik mashhur olimlar" O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash xodimi H.U.Ulug'ovning 80 yilligiga bag'ishlangan "Yuksak fazilat sohibi" kitoblari yaratilishi ustida ish olib borilmoqda.

Samarqandlik 184 nafar mashhur hakimlar haqidagi "Samarqandlik hakimlar" (2011-y) ensiklopedik kitobining 2-tomini chiqarish borasida assotsiatsiya jadal ishlar olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi vrachlar assotsiatsiyasining 20-yilligini munosib kutib olish maqsadida Samarqand viloyati vrachlar assotsiatsiyasi va keng tibbiyot jamoatchi-ligi ezgu ishlarni davom ettirib kelmoqda.

Xulosalar. Mustaqillik yillarida vrachlar huquqini himoya qilish, nodavlat tibbiyot muassasalaiiga huquqiy yordam berish, tibbiyot xodimlari malakasini oshirishi hamda kasbiy toifaga ega bo'lishiga ko'mak berish, kam taminlangan va nogiron shifokorlarga moddiy berish assotsiatsiyasining faoliyatiga asosiy o'rin olgan. Tibbiyot fi-doyilarini qadrlash va xotirlash assotsiatsiyasining dolzarb vazifalaridan hisoblangan.

Adabiyotlar

1. N.I. Xodjayev, H.U. Ulug'ov Samarqand viloyat vrachlar assotsiatsiyasi tarixiga bir nazar. / Samarqand 2012-yil. 21 -bet.
2. N.I. Xodjayev, H.U. Ulug'ov Xotirlash va qadrlash ulug' fazilat (O'VA konferensiya materiali).
3. H.U. Ulug'ov. N.I.Xodjayev Samarqand viloyat vrachlar assotsiatsiyasi qisqacha tarixi (O'VA konferensiya materiali).
4. O'zbekiston Respublikasi P-ezidentining 1998-yil 10-noyabrda PF-2107 sonli "O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish to'g'risida" gi farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-sentabrdagi PF-3923 sonli "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yana-da chuqurlashtirish davlat dasturini amaiga oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida" gi farmoni.
6. Viloyat vrachlar assotsiatsiyasining hujjatlari.
7. O'VA ning 2012-yil 31-martdagi kengash qarori.

Xodjaev N.I.

PIRU KOMIL INSON, AZIZ USTOZ

Samarqand davlat tibbiyot instituti (rektori - prof. Shamsiev A.M.)

Be pir marav daromoni harchand boshi Iskandari zamon" forscha maqol (ya'ni, o'z zamonangning Iskandar zulqamayi bo'lsang ham pirsiz omonlikka, muvaffaqiyatga erisholmaysanjni menga rahmatli otam 40-50 yil oldin aytgan va hayotda bunga amal qilishni uqtirgan edi. Vaqt o'tib o'ziin mustaqil ishlay boshlaganimda ustozlar yo'l - yorig'iga quloq solib faoliyat ko'rsata boshladim. Qirq yiliik mehnat faoliyatimda Samarqand davlat tibbiyot institutining ko'pchilik professor-o'qituvchilari, viloyat davolash profilaktika muassasalarining rahbarlari menga ustozlik qilganlar. Shular orasida alohida o'rinda Hoji Ulug'ovich Ulug'ov turadi. Hoji Ulug'ovich menga talaba-lik davrimdan tanish. U kishining Oqdaryo tumani sog'liqni saqlash tizimini boshqargan paytidagi ibratli ishlarini Samarqandliklar doim faxr bilan aytib yurardi. Hoji Ulug'ovich 1978-1993 -yillar Samarqand davlat tibbiyot institutining 2-klinikasi bosh vrachi bo'lib ishlaganida o'zini yanada namoyon etdi. Shifoxonani to'liq qurib bitkazdi,

zamonaviy tibbiy asbob uskunalar bilan jihozladı, hovlisini gulu-gulzor va bog'u - bo'stonga aylantirdi.

Kechagidek esimda ishxonasida tozalik - ozodalik, qandaydir aytib bo'lmaydigan darajada shinamlik hukm surardi. U kishi doimo bejirim oq xalat kiyib o'tirar, yuzidan nur yog'ilib turardi. Ma'muriyatdagi tartib-intizom, muomila odobi . u kishining betakror aql-farosat egasi bo'lgan rahbar ekanligidan darak berardi.

Ana shunday holatlarni ko'rgan har qanday yosh mutaxassis vrachga, rahbarga havas hissi uyg'onadi. Mening tibbiyot tizimining turli bosqichlariga rahbarlik vazifalarida ishlaganimda ustozning bunday oiliy janob va ibratli

ishlailini amalda qo'llab kelganim ham shu sababdan bo'lsa ajab emas. Hojiakani men doini "Ustozi ulug'", "Ustozi kabi", "Pin komil" deb kelaman. Chunki ustoz bilan maslahatlashib qilingan har bir ishda albatta muvaffaqiyatga erishganin, har bir tadbir oldidan qilgan duolari doimo omad keltirgan.

Hoji Ulug'ovichni viloyatimizda bilmaydigan kishi, ayniqsa u haqda eshitmagan tibbiyot xodimi bo'lmasa kerak. Ha u chindan ham oddiy. kamtarin inson. Haqiqiy ustoz sifatida shogirdlardan mehrini uzmaydi. Yana bir jihati, hozirgi vaqtda viloyat vrachlar assotsiatsiyasining raisi sifatida viloyatdagi 5 mingdan ziyod vrachlarning boshini birlashtirib yuradi va doimo ularning xolidan xabardor bo'lib turadi. Keksalar. nuroniyarga moddiy yordam, bayramlarda sovg'a-salom ulashsa, yoshlarning o'qishi, malaka oshirishiga yordam berib keladi.

Hoji Ulug'ovich Ulug'ov umrini el-yurt salomatligiga va viloyat sog'liqni saqlash tizimining rivojiga bag'ishlab kelayotgan shifokorlardan biri. Shu o'rinda uning hayot yo'li va feoliyatiga to'xtalsak.

1993-yil 4-aprel kuni Samarqand shahar Registon dallasida temirchi oilasida tug'ilgan.

H.U, Ulug'ovning bolaligi, yoshligi Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi og'ir tiklanish davriga to'g'ri keladi. U darslardan keyin Samarqand shahrida temirchi usta sifatida elga tanilgan otasiga yordam berib, ukaiari gaqarashib, kechalari bilan ishlar va o'qir edi.

1952-yili o'rta maktabni bitirib Samarqand Davlatti-biyo tstitutining davolash fakultetiga o'qishga kiradi Bilimga chanqoqligi, tirishqoqligi, darslarni a'lo o'zlashtirish va namunali xulqi bilan talabalar o'rtasida alohida ajralib turardi. Bu qobiliyatini sczgan institut dom-lalari professor F.M. Golub, dotsentlar M.Q. Qorayev, N. M. Babkinalar o'z panohiga oladilar.

1958-yili institutni muvaffaqiyatli tugatgan Hoji Ulug'ovichni umr yo'ldoshi Saida Shokirovna Umarova bilan birgalikda mamlakatimizning chekka hududi Sur-xondaryo viloyati Denav tumaniga ishga yuboradilar. Ma-lakali tibbiy kadrlar yetishmay, ancha qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan Denov tuman markaziy kasalxona-si jamoasi uni xushnud kutib olib, zimmasiga darhol jar-rohlik bo'lnhning tashvishlarini yukiab qo'ydi. Qisqa vaqtda jamoaning va tuman aholi isining hunnatini qozondi.

Hoji Ulug'ov 1960-yili Samarqandga qaytib keldi. U Ishtixon tumani Mitan qo'rg'oni kasalxonasiga bosh vrach lavozimiga tayinlandi. Rahbar, tashkilotchi, muttaxis sifatida tumanda davolash, sanitariya-profilaktik tadbirlarni tashkil qilish ancha qiyin kechdi. Tibbiyot sohasida mahalli-y kadrlar yetishmas, tumanda bolalar o'rtasida bug'ma, qizamiq, ko'k yo'tal, traxoma va boshqa yuqumli kasallik-lar keng tarqalgan, bolalar va onalar o'limi yuqori edi.

O'sha yillari Hoji Ulug'ov o'zi jarroh, travmatolog, LOR vrachi. sanitariya vrachi va epidemolog sifatida jon-bozlik ko'rsatib ishladi. Uning sa'y harakatlari bilan yangi feldsher akusherlik punktlari ochil'di, emlash ishlari yo'lga qo'yildi, aholi o'rtasida sanitariya-maorif ishlari jonlandi. Yuqumli kasalliklar, bolalar o'rtasidagi o'lim sezilarli da-rajadakamaydi.

1964-yili Oqdaryo tumani tashkil qilinib, Hoji Ulug'ov tuman birlashgan kasalxonasi bosh vrachi vazifa-siga tayinlandi. Tajribali rahbar ishni birinchi navbatda, muttaxis kadrlar bilan ta'minlashdan, davolash, sanita-riya-profilaktika ishlailini davr talabi darajasiga qo'yishdan boshladi. Turnandagi 150 o'rinli shifoxona, keyinchalik 300 o'rinli yirik markaziy shifoxonaga aylantirildi. 1972- 1977

yillarda tumanning Dalibed qo'rg'onida 75 o'rinli qishloq uchastkasi shifboxonalari ochilishi. tuman markaziy shifoxonasida 60 o'rinli jarrohlik va tug'ruq xona bo'limlari ishga tushirilishida, 5000 porsiya sut tayyorladi-gan oshxona ochilishi, 2 qavatli dorixona ishga tushirilishi va ularni zamonaviy asbob-uskuna va tibbiy anjomlar bilan jihozlashda. albatta Hoji Ulug'ovning salmoqli hissasi bor.

Xayrli ishlarzoye ketmadi. Oqdaryo tumani' 1977-yili sog'liqni saqlash tizimida hamma ko'rsatkichlar bo'yicha viloyatda 1- o'rinni egalladi. Respublika tumanlari ichida esa o'z vaqtida malakali tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha peshqadam bo'ldi.

1978-yil bahorida Respublika va viloyat rahbariyati Hoji Ulug'ovga katta ishonch bildirib Samarqand tibbiyot institutining 2-son klinikasiga bosh vrach etib tayinlashdi. Samarqandga kelib, bo'lajak klinikaning qurilishini ko'rib biroz cho'chidi ham. Uning yodiga sharq olamining buyuk donishmandi Luqmoni Hakimning "Barcha yukni ko'tardim, ammo burchdan og'irroq yukni ko'rmadim" degan dono so'zlari tushdi. Bosh vrach mas'uliyati kata, og'ir. 18 gektarli maydonda kataqurilish ishlari ketayotir.

Kata tajribali rahbar tezda ishga tushib ketdi. Bahorda 4 gektarli toshloq yerga suv chiqarib, bog' rog'ga aylanti-rishdan boshladi. Chunki klinika ishga tushgunga qadar daraxtlar o'z soyasini berishini bilgan holda bog'bon, qu-ruvehi. me'mor bo'lib ishlashga to'g'ri keldi. Harxil meva-li va manzarali daraxt ko'chatlari o'tkazildi va har xil gul ko'chat lain ekildi.

1979-yili may oyida SamTI 2-son klinikasining 360 o'rinli 1-navbati, 1982-yili 360 o'rinli 2-navbati to'liq ishga tushirildi.

Hoji Ulug'ov klinikada viloyatda 1-bo'lib "Sun'iy buyrak" markazi, chaqaloq bolalar reanimatsiyasi bo'limini ochdi. Klinikani zamonaviy tibbiy asbob- uskunalar bilan ta'minlashga alohida e'tibor beradi. Ultra- tovush yordamida tekshirish apparati, fonokardiografiya, exokardioskop, lazer nuri bilan davolash uchun apparatlar olinib ishga tushiriladi.

Hoji Ulug'ov mohir tashkilotshi, bilimdon, malakali muttaxis bo'lishi bilan birga yoshlarga mehribon ustoz. U kishining maslahati va bevosita ko'magi bilan 4 ta fan doktori, 22 ta fan nomzodlari yetishib chiqdilar.

Hoji Ulug'ovich xalqimiz sog'lig'ini saqlash borasi-dagi benihoyat xizmatlari munosib taqdirlangan. 1992-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatga nsog'Hqni saqlash xodimi" faxriy unvoni berildi.

Hoji Ulug'ovichning tibbiyot sohasidagi ulkan xiz-matlari, ayniqsa SamMI 2-klinikasi sohasini qurib foydala-nishga topshirishdagi jonbozligiga Samarqand xalqi munosib baho berdi. Hali-hanuz alioli ushbu shifo maskanini "Ulug'ov bolnitsasi" deb aytadi. H.Ulug'ov hozirgi kunda Samarqand viloyat vrachlar assotsiatsiyasining raisi lavo-zimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. U kishi viloyatdagi 5 mingdan ziyod vrachlarning boshini birlashtirib yurar ekan, doimo ularning xolidan xabardor bo'lib turadi. Keksalar, nuroniyarga moddiy yordam, bayramlarda sovg'a- salom ulashish, yoshlarning o'qish, malaka oshirishiga yordam berish, vrachlar o'rtasida turlixil musobaqalar o'tkazish, SamMlning eng namunali talabalariga assotsiat- siya nomidan stipendiyalar ajratish, tibbiyot xodimlari bay-ramlarini o'tkazish, umuman olganda vrachlarning barcha tashvishlariga sherik bo'lib kelayotir.